



TARKIBIY O'ZGARISHLARNING HUDUDLAR IQTISODIYOTINING RIVOJLANISHGA TA'SIRI

*I.f.n., dotsent **Raxmatullayeva Firuza Mubinovna***

Buxoro davlat universiteti

ORCID: 0000-0003-4059-3229

fusalinaa@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqalar iqtisodiyoti tarmoqlaridagi tarkibiy o'zgarishlar va ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri yoritilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi mintaqaviy strukturaning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish zarurligini asoslashdir. Maqolada "tarkibiy o'zgarishlar" atamasi bo'yicha turli nuqtai nazarlarning mazmuni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: mintaqaviy iqtisodiyot, iqtisodiyot tuzilmasi, tarkibiy o'zgarishlar, tarkibiy transformatsiyalar, rivojlanish iqtisodiyoti, tarmoqlar nisbati.

ВЛИЯНИЕ СТРУКТУРНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ НА СБАЛАНСИРОВАННОЕ РАЗВИТИЕ РЕГИОНОВ

*К.э.н., доцент **Рахматуллаева Фируза Мубиновна***

Бухарский государственный университет

Аннотация. В статье описаны структурные изменения в отраслях экономики региона и их влияние на экономическое развитие. Основная цель исследования – обосновать необходимость изучения особенностей региональной структуры. В статье раскрывается содержание различных точек зрения на термин «структурные изменения».

Ключевые слова: региональная экономика, структура экономики, структурные сдвиги, структурная трансформация, экономика развития, пропорции секторов.

THE IMPACT OF STRUCTURAL CHANGES ON THE BALANCED DEVELOPMENT OF REGIONS

*Department of Economics, dotsent **Rakhmatullaeva Firuza Mubinovna***

Bukhara State University

Abstract. The article describes structural changes in the regional economy and their impact on economic development. The main objective of the study is to justify the need to study the features of the regional structure. The article reveals the content of various points of view on the term "structural changes".

Keywords: regional economy, economic structure, structural shifts, structural transformation, development economy, sectors' proportions.

Kirish.

Mamlakat va uning hududlarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda tarkibiy o'zgarishlar va islohotlarni amalga oshirish juda muhim bo'lib, davlatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida qayd etilgan ijobiy o'zgarishlar va amalga oshirilayotgan islohotlar aynan shu masalaga qaratilgan.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida mamlakatlar o'zlarining milliy xususiyatlarini inobatga olgan holda islohotlarni amalga oshirishi muhimdir. Misol uchun, Janubiy Koreya va Singapur kabi davlatlar hukumatining faol ishtirokida strategik tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash, infratuzilmaga investitsiyalar oqimini ko'paytirish orqali jadal iqtisodiy o'sishga erishdilar. Shu bilan birga, ular kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashga katta ahamiyat berib, turli sohalarda raqobatbardoshlikni oshirishga intildilar.

O'zbekiston ham ushbu tajribalardan foydalanib, turli sohalarni rivojlantirishda tarmoqlar o'rtasidagi muvozanatni saqlashi va diversifikatsiyani kuchaytirishi zarur. Xususan, iqtisodiy o'sishning yangi drayverlarini yaratish maqsadida innovatsion va yuqori texnologiyalar sohasiga sarmoyalarni ko'paytirish lozim. Ayni payda, qishloq xo'jaligida yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarishga e'tibor qaratish, ishlab chiqarishning barqarorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiyotdagi "tarkibiy o'zgarishlar" atamasi ishlab chiqarish, bandlik, talab va savdo tarkibidagi transformatsiyani izohlash uchun ishlatiladi, va bu ko'pincha mamlakat rivojlanishi bilan birga sodir bo'ladi (Doyle, 1997). Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda (sanoatlashgan va sanoatlashtirish jarayonida bo'lgan) sarf-xarajatlar va ishlab chiqarish tarkibida doimiy o'zgarishlar bo'ladi, bunga sabab esa texnologiya va raqobat ustunligiga erishish istagidir.

Tarkibiy o'zgarishlarni iqtisodiyot tarmoqlarining nisbiy ahamiyatliligining o'zgarishi sifatida ta'riflash mumkin. Tarkibiy o'zgarishlarni samarali boshqarish tarmoqlar o'rtasidagi proporsiyalarni optimallashtiradi va cheklangan iqtisodiy resurslarni YaHMga katta hissa qo'shadigan dominant tarmoqlarga yo'naltiradi.

Abuzarovaning (2011) ta'rifiga ko'ra, "...tarkibiy o'zgarishlarning mohiyati iqtisodiy tizim unsurlarining o'zaro aloqalarining sifat jihatidan o'zgarishi, ehtiyojlar va resurslar muvofiqligining o'zgarishidan iborat".

Yakovetsning (2004) ta'kidlashicha, iqtisodiyotdagi har qanday o'zgarishlarning asosi tsiklik dinamika bo'lib, tarkibiy o'zgarishlar esa ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshligining pasayishi tufayli iqtisodiy faoliyat sifatining davriy ravishda yomonlashuvida namoyon bo'ladigan tsiklik inqirozlarni bartaraf etishning samarali usuli hisoblanadi.

Strukturaviy siljishlar, Berkovichning (1989) fikriga ko'ra, "barcha tuzilmani tashkil etuvchi barcha omillar ta'siri ostida yuzaga keladigan iqtisodiy tizim nisbatlarining o'zgarishi".

Iqtisodiyot nazariyasida "tarkibiy o'zgarishlar" deganda "o'zaro bog'liq proporsiyalardagi mavjud texnologik baza ta'sirida, mintaqaviy ehtiyojlarga muvofiq takror ishlab chiqarish, taqsimot va ayirboshlash mexanizmlari ta'sirida yuzaga keladigan o'zgarishlarning murakkab tizimi tushuniladi» (Сухаев, 2010).

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar turli iqtisodiy va noiqtisodiy omillar ta'sirida yuzaga keladigan iqtisodiy tizim tarkibidagi o'zgarishlarni ifodalaydi. Iqtisodiy tizim samaradorligini oshirishga olib keladigan o'zgarishlar progressiv tarkibiy o'zgarishlardir (Лопатников, 2003).

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot davomida rasmiy manbalardan olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda ilmiy mushohada, dinamik qatorlar, iqtisodiy-statistik tahlil va sintez, statistik guruhlash, tizimli

tahlil, taqqoslash va boshqa usullardan foydalanildi. Shuningdek, tadqiqotning nazariy va metodologik asoslari sifatida mahalliy va xorijiy iqtisodchilarning klassik va zamonaviy asarlarida aks ettirilgan, kontsepsiyalari va gipotezalari xizmat qildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston iqtisodiyotining hududiy va tarmoq tarkibini o'rganish hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni anglashga yordam beradi. O'zbekiston 12 ta viloyat, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahridan iborat bo'lib, ularning har biri o'ziga xos tabiiy va iqtisodiy resurslari, infratuzilmasi va iqtisodiy xususiyatlariga ega. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, hududiy rivojlanishni ta'minlashda hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda ixtisoslashuvni kuchaytirish muhimdir. Masalan, Italiyadagi "Made in Italy" brendi aynan hududiy ixtisoslashuv natijasida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga asoslangan.

Xuddi shunday, iqtisodiyot turli sohalarni, jumladan, qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmatlarni o'z ichiga oladi, ularning har biri o'sish va bandlikni ta'minlashda alohida rol o'ynaydi. Iqtisodiyotni muvozanatli rivojlantirish uchun har bir tarmoqning salohiyatidan to'liq foydalanish va ularni bir-birini to'ldiruvchi tarmoqlarga aylantirish maqsadga muvofiqdir. Germaniyaning sanoat sektoridagi kuchli taraqqiyoti va xizmatlar sohasidagi innovasion echimlari iqtisodiy rivojlanishda yuqori samaradorlikka erishishga olib keldi. O'zbekistonda ham sanoat va xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish orqali iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash imkoniyati mavjud.

Xuddi shunday, iqtisodiyot turli sohalarni, jumladan, qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmatlarni o'z ichiga oladi, ularning har biri o'sish va bandlikni ta'minlashda alohida rol o'ynaydi. Iqtisodiyotni muvozanatli rivojlantirish uchun har bir tarmoqning salohiyatidan to'liq foydalanish va ularni bir-birini to'ldiruvchi tarmoqlarga aylantirish maqsadga muvofiqdir. Germaniyaning sanoat sektoridagi kuchli taraqqiyoti va xizmatlar sohasidagi innovasion yechimlari iqtisodiy rivojlanishda yuqori samaradorlikka erishishga olib keldi. O'zbekistonda ham sanoat va xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish orqali iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash imkoniyati mavjud.

O'zbekiston iqtisodiyoti turli hududlardagi rivojlanish darajasi bilan ajralib turadi. Mamlakatda hududlar o'rtasidagi iqtisodiy faoliyat, investisiyalar, infratuzilma va boshqa omillar bo'yicha turli farqlar mavjud. Mamlakatimiz hududlarining iqtisodiy salohiyati hamda tarmoq tarkibini baholashga turli makroiqtisodiy indikatorlarni tahlil qilish asosida erishish mumkin. Bunda yalpi hududiy mahsulotning (YaHM) mutlaq qiymati va uning aholi jon boshiga hisoblangan ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega. Keng qamrovli tahlil o'tkazish orqali hududiy tafovutlarning sabablari haqida tushunchaga ega bo'lish va hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga oid maqsadli chora-tadbirlarni shakllantirish mumkin. O'zbekistonning YaIM hajmi bo'yicha ma'lumotlar quyidagi 1-javdalda keltirilgan.

Bu ko'rsatkich hududlarning iqtisodiy rivojlanish sur'atini, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy dinamikani va o'sish tendensiyasini tahlil qilishga imkon beradi.

Umumiy holatda, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIM 2013 yilda 153311,3 milliard so'mdan 2023 yilda 1066569,0 milliard so'mgacha oshgan. Bu o'n yillik davrda YaIMning sezilarli darajada o'sganini ko'rsatadi. Lekin, 2023 yilda o'sish sur'ati (106,0%) 2013 yilga nisbatan (107,3%) biroz pastroq (-1,3%) bo'lgan. Bu mamlakatdagi umumiy o'sish suratlari ma'lum darajada pasayganini ko'rsatadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida YaHM hajmi 2013 yilga nisbatan oshgan bo'lsa ham, o'sish sur'ati -4,5% bo'lib, iqtisodiy rivojlanishning sekinlashganini ko'rsatadi. Bu hududdagi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish va barqarorlikni ta'minlash uchun qo'shimcha choralar ko'rish talab qilinadi.

Navoiy viloyati YaHM hajmida eng yuqori o'sish ko'rsatgan hududlardan biri hisoblanadi. 1,4% o'sish sur'ati bu hududda iqtisodiy faoliyat barqarorligini va rivojlanishni ko'rsatadi.

1-jadval

Yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi (mlrd. so'm) va o'sish sur'atlari (%)

Viloyatlar	2013		2015		2017		2019		2021		2023		o'zgarishi 2023/2013	
	hajmi	o'sish sur.	hajmi	o'sish sur.	hajmi	o'sish sur.	hajmi	o'sish sur.	hajmi	o'sish sur.	hajmi	o'sish sur.	hajmi	o'sish sur.
O'zbekiston Respublikasi	153311,3	107,3	221350,9	107,2	317476,4	104,4	532712,5	106,0	738425,2	107,4	1066569,0	106,0	+913257,7	-1,3
Qoraqalpog'iston Resp.	4366,7	108,0	6703,8	110,5	10855,1	106,1	19557,0	107,0	25681,8	107,6	32916,1	103,5	+28549,4	-4,5
Andijon	9918,6	108,6	13914,0	103,4	19753,0	104,1	33581,3	105,8	43332,5	104,8	68223,4	105,1	+58304,8	-3,5
Buxoro	8325,9	108,3	12368,6	108,5	17191,0	102,4	27963,2	106,3	38350,1	106,5	53232,3	105,2	+44906,4	-3,1
Jizzax	4517,9	108,9	6730,8	108,3	9680,7	104,1	16056,1	108,3	23274,3	107,7	33323,3	105,0	+28805,4	-3,9
Qashqadaryo	12308,3	105,4	17247,7	106,6	21597,3	103,5	32223,0	101,8	42560,2	106,8	58404,5	105,0	+46096,2	-0,4
Navoiy	7708,5	104,4	10545,2	103,8	14681,5	101,5	36224,3	105,2	58730,3	107,3	81943,2	105,8	+74234,7	+1,4
Namangan	7217,2	108,0	10826,9	107,7	15311,1	103,4	23764,0	107,4	34194,1	109,7	47112,6	105,4	+39895,4	-2,6
Samarqand	12383,0	108,0	18513,7	108,4	27039,0	101,5	38765,9	105,4	52893,6	108,5	74115,3	105,6	+61732,3	-2,4
Surxondaryo	7436,4	107,8	11114,4	107,3	14404,4	103,4	22288,1	103,7	29693,2	107,9	40909,8	104,4	+33473,4	-3,4
Sirdaryo	3446,4	105,0	5076,9	107,1	6799,6	95,5	11865,2	109,5	15071,5	109,0	21549,9	105,9	+18103,5	+0,9
Toshkent	15420,7	106,5	22089,0	105,9	29092,8	101,0	54759,3	107,3	82221,8	110,4	107918,1	105,0	+92497,4	-1,5
Farg'ona	10966,4	107,5	16342,4	107,3	20749,2	98,9	32520,8	104,4	47760,5	108,2	65781,0	105,5	+54814,6	-2,0
Xorazm	5815,3	109,7	8940,4	109,0	12008,1	104,5	19129,1	105,7	26464,3	108,1	36916,5	104,4	+31101,2	-5,3
Toshkent sh.	19838,9	108,5	29847,4	109,2	49259,1	110,8	84720,4	108,5	121779,8	116,0	181859,6	109,3	+162020,7	+0,8


Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Toshkent shahrining iqtisodiy o'sish sur'ati 0,8% bo'lib, bu hududning yuqori iqtisodiy faoliyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Lekin, ayrim omillar (masalan, inflyasiya, talab va taklifning o'zgarishi) iqtisodiy o'sish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Umuman olganda, ko'plab hududlarda YaHM o'sish sur'ati 2013 yilga nisbatan past. Navoiy va Toshkent shaharlari iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ko'rsatadi. Bu hududlarda sarmoyalarni oshirish va iqtisodiy faoliyatni kengaytirish imkoniyati mavjud.

Qoraqalpog'iston, Xorazm va Farg'ona viloyatlarida iqtisodiy o'sish sur'atlari past bo'lib, bu hududlardagi iqtisodiy faoliyatni jonlantirish uchun qo'shimcha choralar ko'rish zarur. Ayniqsa, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va infratuzilmani rivojlantirish muhim bo'ladi.

O'zbekistonning turli hududlarida 2013 va 2023 yillardagi yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi va mamlakat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlari taqqoslangan (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda hududlari bo'yicha 2013 va 2023 yillarda YaHM qiymati, amaldagi narxlarda mlrd. so'm

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Toshkent shahrining iqtisodiy ko'rsatkichlari boshqa hududlardan keskin yuqori, 2023 yilda 181856,9 mlrd. so'mga etgan. Bu hududning mamlakat iqtisodiyotidagi yetakchi rolini ko'rsatadi. Toshkent va Navoiy viloyatlari ham nisbatan yuqori ko'rsatkichlarga ega, lekin Toshkent shahri bilan taqqoslaganda ularning ko'rsatkichlari ancha past.

2013 yilda mamlakat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 9262,2 mlrd. so'mga teng bo'lgan. O'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan hududlar qatoriga Andijon (9918,6), Qashqadaryo (12308,3), Samarqand (12383,0), Toshkent (15420,7), Farg'ona (10966,4) viloyatlari va Toshkent shahri (19838,9) kiradi. Qolgan hududlar mamlakat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan past natijaga erishgan.

2023 yilda esa mamlakat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 64586,1 mlrd. so'mni tashkil etgan. Bu o'sish ko'plab hududlardagi iqtisodiy rivojlanishga bog'liq. Mamlakat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan hududlar qatoriga Andijon (68223,4), Navoiy (81943,2), Samarqand (74115,3), Toshkent (107918,1), Farg'ona (65781,0) viloyatlari va Toshkent

shahri (181859,6) kiradi. Qashqadaryo viloyati 2013 yilda o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan hududlar qatoriga kirgan bo'lsa, 2023 yilda Navoiy viloyati yuqori ko'rsatkiga erishgan. Qolgan hududlar mamlakat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan past natijaga erishgan.

Barcha hududlarda 2013 yilga nisbatan 2023 yilda sezilarli o'sish kuzatilgan. Masalan, Navoiy viloyatida 2013 yildagi 7708,5 mlrd. so'mdan 2023 yilda 81943,2 mlrd. so'mga o'sish qayd etilgan.

Sirdaryo viloyati respublika YaIM tarkibida eng kichik ulushga ega bo'lgan hudud hisoblanadi. 2013 yilda 3446,4 mlrd. so'm qayd etilgan bo'lsa, 2023 yilda bu ko'rsatkich 21549,9 mlrd. so'mga yetgan.

Toshkent shahridan tashqari Andijon, Navoiy, Farg'ona va Qashqadaryo viloyatlari ham yuqori iqtisodiy o'sishga erishgan. Bu hududlar iqtisodiy rivojlanishga katta hissa qo'shmoqda.

Toshkent shahri iqtisodiy rivojlanishda yetakchi hudud bo'lib qolmoqda, va aksariyat viloyatlarda 2013 yilga nisbatan 2023 yilda sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Biroq, ayrim hududlar, masalan Jizzax va Sirdaryo viloyatlari mamlakatning o'rtacha ko'rsatkichlaridan ancha pastda qolgan. Bu hududlarda iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini qayta ko'rib chiqish lozim.

Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (YaIM) yoki yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hududlarning iqtisodiy rivojlanishini o'lchash va taqqoslashda muhim ko'rsatkichdir. U hududning iqtisodiy holatini, aholi farovonligini va turmush darajasini baholashda asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Aholi jon boshiga YaIM iqtisodiy faoliyat natijasida aholiga qanchalik iqtisodiy boylik taqsimlanganini ko'rsatadi. YaHMning yuqori bo'lishi aholi uchun ko'proq daromad va farovonlikni ta'minlaydi.

Turli hududlarning iqtisodiy holatini taqqoslashda aholi jon boshiga YaHM asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, iqtisodiy rivojlanish darajasiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilishga imkon beradi. Masalan, bir hududda YaHM yuqori, boshqasida past bo'lsa, bu hududlar iqtisodiyotining sifat va samaradorlik darajasidagi farqlarni aks ettiradi. YaHMning aholi jon boshiga yuqori bo'lishi hududda yaxshi rivojlangan infratuzilma va sarmoya jalb qilish imkoniyatlarining yuqori ekanligini ko'rsatadi. Bu esa yangi ish o'rinlari yaratish, ijtimoiy xizmatlarning sifatini oshirish va aholi turmush darajasini yaxshilashga yordam beradi. Bundan tashqari YaHM yuqori bo'lgan hududlarda soliq tushumlari ham yuqori bo'ladi. Bu davlatga ko'proq mablag'larni qayta taqsimlash va ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish imkonini beradi.

O'zbekiston bo'yicha aholi jon boshiga YaIM hajmi 2013 yilda 5069,3 ming so'mdan 2023 yilda 29291,4 ming so'mgacha oshgan. O'sish sur'atlari yillar davomida yuqori darajada bo'lgan. 2013 yildan 2023 yilgacha o'sish sur'atida -1,8% o'zgarish kuzatilgan, ya'ni o'n yil davomida umumiy o'sish sur'ati pasaygan.

Aholi

jon boshiga yalpi ichki (hududiy) mahsulot koeffitsientlari va bu ko'rsatkich bo'yicha hududlarning respublikadagi o'rnini bo'yicha ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan (2-jadval).

2-jadvalda O'zbekistonning turli hududlari bo'yicha aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (YaIM) koeffitsientlari keltirilgan. Bu koeffitsientlar hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini, shuningdek, mamlakat o'rtasidagi o'rnini va aholining turmush darajasini ko'rsatadi.

Navoiy viloyati uzoq vaqtdan beri eng yuqori aholi jon boshiga YaHM koeffitsientiga ega bo'lib kelmoqda (2019 yilda 2,310; 2021 yilda 2,713; 2023 yilda 2,626). Bu hududning sanoat salohiyati, xususan tabiiy resurslarga boyligi bilan bog'liq. Viloyatda iqtisodiy rivojlanish yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi va aholi farovonligi mamlakat bo'yicha eng yuqori darajada.

Toshkent viloyati ham yuqori koeffitsientga ega. Bu hududdagi sanoat korxonlari va infratuzilma rivojlanganligi tufayli iqtisodiy o'sish yuqori bo'lib, aholi jon boshiga YaHM ko'rsatkichi boshqa hududlarga nisbatan ancha yuqori. Lekin 2023 yilda 2021 yilga nisbatan ma'lum darajada pasayish kuzatilgan. 2021 yilda 1,334 koeffitsient, 2023 yilda esa 1,219 koeffitsientni tashkil etgan.

Aholi jon boshiga yalpi ichki (hududiy) mahsulot ko'ffisientlari

Viloyatlar	2019		2021		2023	
	ko'eff.	rang	ko'eff.	rang	ko'eff.	rang
O'zbekiston Respublikasi	1,000	-	1,000	-	1,000	-
Qoraqalpog'iston Resp.	0,654	7	0,627	8	0,565	10
Andijon	0,683	6	0,636	7	0,694	6
Buxoro	0,923	3	0,924	3	0,897	3
Jizzax	0,740	5	0,771	5	0,763	5
Qashqadaryo	0,626	10	0,597	10	0,566	9
Navoiy	2,310	1	2,713	1	2,626	1
Namangan	0,538	13	0,558	12	0,531	12
Samarqand	0,637	9	0,627	9	0,608	8
Surxondaryo	0,540	12	0,518	13	0,491	13
Sirdaryo	0,892	4	0,819	4	0,813	4
Toshkent	1,182	2	1,334	2	1,219	2
Farg'ona	0,551	11	0,585	11	0,559	11
Xorazm	0,651	8	0,656	6	0,638	7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Buxoro viloyati ham o'rtacha yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, turli sanoat sohalari rivojlangan. Har yilda ko'ffisientlar deyarli o'zgarasdan 3-o'rinni saqlab qolgan, bu esa hududning iqtisodiy barqarorligini ko'rsatadi.

Sirdaryo viloyatida aholi jon boshiga YaHM ko'ffisienti (2019 yilda 0,892) deyarli respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichga yaqin hisoblanadi, lekin 2021 (0,819) va 2023 (0,813) yillardagi ko'rsatkichlar pasaygan. Bu hududdagi iqtisodiy faoliyatdagi turli muammolar yoki rivojlanish imkoniyatlarini to'liq ishga solmaslik natijasida yuzaga kelgan bo'lishi mumkin.

Qashqadaryo viloyati 2019 yilda 0,626 ko'ffisient bilan 10-o'rinda, 2023 yilga kelib 9-o'ringa ko'tarilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi esa 2019 yilda 0,654 ko'ffisient bilan 7-o'rinda, 2023 yilga kelib 10-o'ringa pasaygan. Har ikki hududda ham iqtisodiy rivojlanish darajasi mamlakat o'rtacha ko'rsatkichidan past. Bu hududlarda iqtisodiy faoliyatni kuchaytirish, infratuzilmani rivojlantirish va sarmoya jalb qilish zarur.

Namangan viloyati 2019 yilda 0,538 ko'ffisient bilan 13-o'rinda, 2023 yilga kelib 12-o'ringa ko'tarilgan. Surxondaryo viloyati 2019 yilda 0,540 ko'ffisient bilan 12-o'rinda, 2023 yilga kelib 13-o'ringa pasaygan. Bu hududlar mamlakatdagi eng past ko'rsatkichlarga ega. Bu iqtisodiy imkoniyatlar cheklanganligi, sarmoyalarning kamligi yoki tabiiy resurslardan foydalanishdagi muammolarni ko'rsatadi. Aholi jon boshiga YaHM ko'rsatkichlari hududdagi farovonlikni oshirish uchun qo'shimcha iqtisodiy chora-tadbirlar zarur hisoblanadi. Bu hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni ko'rsatadi. Bu iqtisodiy rivojlanishda kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Xorazm viloyati 2023 yilda 0,638 koeffitsient bilan 7-o'rinni egallagan. Andijon viloyati 2023 yilda 0,694 koeffitsient bilan 6-o'rinda, Jizzax viloyati esa 2023 yilda 0,763 koeffitsient bilan 5-o'rinda. Bu hududlar o'rtacha iqtisodiy rivojlanishga ega bo'lib, 2023 yilgacha sezilarli o'sishga erishgan. Jizzax viloyatining koeffitsienti yuqori bo'lib, hududdagi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishiga bog'liq.

Jadvalda keltirilgan koeffitsientlar hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Navoiy va Toshkent viloyatlari yuqori rivojlangan hududlar hisoblanadi, bu ularning iqtisodiy salohiyati va infratuzilmasi rivojlanganligini ko'rsatadi. Ayrim hududlarda past koeffitsientlar ko'rsatilgan, bu esa iqtisodiy imkoniyatlarni yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

YaHM aholi jon boshiga hisoblaganda ko'rsatkich yuqori bo'lsa, bu hududdagi aholi turmush darajasi yuqori ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, YaHM past bo'lsa, hududda yashash sharoitlari, ijtimoiy xizmatlar sifati past bo'lishi mumkin. Aholi jon boshiga YaHMning yuqori bo'lishi tabiiy resurslarga boy hududlarda kuzatilishi mumkin. Bu holatda diversifikasiyalangan iqtisodiyot hududning barqaror rivojlanishi uchun muhimdir.

Xulosa va takliflar.

Shunday qilib, iqtisodiyotning tuzilmasi har qanday tizimning asosiy xarakteristikasi bo'lib, uning barqarorligini belgilab beradi. Evolyutsion rivojlanish jarayonida ma'lum tarkibiy transformatsiyalar amalga oshiriladi. Agar ular tizimni tashkil etuvchi aloqalar va munosabatlarning uzilishiga, yaxlitlik va muvozanatning buzilishiga olib kelsa, iqtisodiy tizim qayta tizimlashtiriladi. U ob'ekt tarkibi, hajmi va nisbatlarida adaptiv o'zgarishlarining kompleks jarayonini tavsiflaydi, bu strukturaning yangi tizimli sifatlarini shakllantirishga yoki ularning sezilarli o'zgarishlariga olib keladi. Ular asosida iqtisodiy tizim yangi dinamik muvozanatga ega bo'ladi.

Tahlillar shundan dalolat beradiki, O'zbekistonning har bir hududi o'ziga xos tabiiy resurslar, sanoat infratuzilmasi va iqtisodiy imkoniyatlarga ega. Shuning uchun, har bir hududning mavjud resurslari va sanoatning ustun jihatlarini chuqur o'rganib, yuqori o'sish salohiyati va raqobatbardoshlikka ega sohalarini aniqlash zarur.

Xulosa qilib aytganda, hududiy salohiyat va imkoniyatlarni strategik rejalashtirish va chuqur tahlil qilish orqali mahalliy va xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilish taklifi o'rinli va ilmiy asosga ega. Hududlarning o'ziga xos salohiyatlaridan unumli foydalanish, resurslar taqsimotini optimallashtirish va risklarni boshqarish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy rivojlanishga va aholi farovonligini oshirishga erishiladi.

Adabiyotlar/ Литература/ Reference:

Doyle, E. (1997) „Structural Change in Ireland“, *Journal of Economic Studies*, 24: 58 - 68.

Абузарова М.И. (2011) *Методологические основы структурных сдвигов в экономике*// *Экономические науки*. –М., - No 4. - С.78-89.

Беркович, Л.А. (1989) *Взаимосвязь процессов интенсификации производства и структурных сдвигов в экономике*. – Новосибирск.

Лопатников Л.И. (2003) *Экономико-математический словарь: Словарь современной экономической науки*. –М.: Дело, URL: https://economic_mathematics.academic.ru/4431/Структурные_сдвиги_в_экономике.

Сухарев О.С. (2010) *Структурные проблемы экономики России: теоретическое обоснование и практические решения*. – М.: Финансы и статистика, – 192 с.

Яковец Ю.В. (2004) *Эпохальные инновации XXI века*. –М., С. 127.